

TARBIYA FANINI O'QITISH METODIKASI

Rafikova Dilafruz Kaxxorialiyevna

*Farg'ona davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasida
katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d.,(PhD)*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakatimiz umumta'lim maktablarida Tarbiya fanini o'qitishning joriy qilinishi, ushbu fanning vazifalarining belgilanishi, usullari va metodlari, tarbiya vositalari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *umumta'lim maktablari, tarbiya, tarbiyaning mohiyati, tarbiya metodlari, tarbiya usullari, tarbiya vositalari.*

МЕТОДОЛОГИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ НАУКИ ОБРАЗОВАНИЯ

Рафикова Дилафруз Кахоралиевна

*Старший преподаватель кафедры «Педагогика» Ферганского
государственного университета,(PhD)*

Аннотация: *В данной статье представлены сведения о внедрении обучения в общеобразовательных школах нашей страны, определение задач данного предмета, методов и методов, учебных средств.*

Ключевые слова: *общеобразовательная школа, образование, сущность образования, методы обучения, методы обучения, средства обучения.*

METHODOLOGY OF TEACHING SCIENCE OF EDUCATION

Rafikova Dilafruz Kakhorialiyevna

Senior teacher of the "Pedagogy" department of Fergana State University, (Ph.D)

Abstract: *This article presents information about the introduction of education in general education schools of our country, definition of the tasks of this subject, methods and methods, educational tools.*

Key words: *general education schools, education, essence of education, methods of education, methods of education, means of education.*

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida demokratik taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan Harakatlar strategiyasidan Taraqqiyot strategiyasi sari yo'l jamiyatda shaxslararo munosabatlarni takomillashtirish zarurati bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur o'zgarishlarning demokratik mohiyati jamiyat ongi, kishilarning o'z-o'zini anglashi va shu asosda kuchli jamiyatdan kuchli davlat sari yuksalishda o'z aksini topadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining 70-maqjadi "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" deb nomlanib, unda "Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash"[1], ta'kidlanadi. Bu esa demokratik jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib yashashlari zarurligini anglatadi. Shuningdek, "Jamiyatimizda demokratiya tamoyillari, qonun ustuvorligini ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Sud-huquq tizimini demokratlashtirish va liberallashtirish (erkinlashtirish) ishlari hayotga izchil tatbiq etilmoqda, sud hokimiyatining fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi rolini oshirmoqdamiz"[2;48].

Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi sa'y-harakatlarni tizimli asosda yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tasabbusning ilgari surilishi O'zbekiston tarixida yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (22-dekabr, 2022-yil)da ham maktabgacha ta'lim tizimi haqida fikrlar keltirib o'tilgan:

Biz Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak.

Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, demakdir.

Shu bois, birinchi navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratamiz.

"Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi".

Fanni o'qitishdan maqsad - bakalavr talabalariga ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va strategiyasi, o'quv jarayonini tashkil etish shakllari va metodlariga qo'yilayotgan zamoniy talablar hamda Tarbiya fanini o'qitish metodikasiga oid nazariy va amaliy ma'lumotlar berishdan iborat.

Fanning vazifalari - talabalarni tarbiya fanini o'qitish metodikasining nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish; metodik jihatdan pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni egallash; tarbiya fanini o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda zamoniviy texnologiyalarni keng ddoirada qo'llay olishga yo'naltirish; pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikka tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.

Maqsad, mazmun, shakl kategoriyalari tarbiya jarayonining mohiyati (u nimaga qaratilgan, nimani to'ldiradi, nimaga yo'naltirilgan, qanday shaklda tugallanadi)ni

ochib beradi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda qanday qilib tarbiyalash savoli bilan aloqador yana bir muhim kategoriya ham mavjud. Bu tarbiya metodi tushunchasidir.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo‘l) tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta‘sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o‘zining imkoniyatiga ko‘ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o‘zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Tarbiya metodlarini bunday xususiy takomillashtirish tarbiya usullari deb ataladi. Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo‘yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o‘zining tarbiyalanuvchilari bilan yo‘l ochadigan o‘rganilmagan so‘qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo‘llar – metodlarga aylanishi mumkin. Tarbiya metod va usullarini bilish, ularni to‘g‘ri qo‘llay olishni egallash – bu pedagogik mahorat darajasini belgilovchi muhim tavsiflardan biri. Tarbiya metod va usullarining aloqadorligi ana shunda.

Amaliyotda tarbiya vositalari tushunchasi ham ajratiladi. Usullar deganda ta‘sir ko‘rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig‘indisi tushuniladi. Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko‘rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko‘rsatish – bu usullar. So‘z (keng ma‘noda) – tarbiya vositasi, biroq replika taqqoslash – usullar. Bu bilan bog‘liqlikda ba‘zan tarbiya metodlari qo‘yilgan maqsadni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.www.lex.uz.
2. “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2020-yil 6-iyul, 422-son
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B 48.
4. Эргашев У. А. РОЛЬ УЧИТЕЛЕЙ-НАСТАВНИКОВ В ОСМЫСЛЕННОМ ПРОВЕДЕНИИ ДОСУГА СТУДЕНТОВ //ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. – 2021. – С. 150-153.

5. Oltmisheva N. G., Ergashev U. A., Umurzaqov A. M. OLIY TA'LIMDAGI PEDAGOGIK FAOLIYATNING O'ZIGA XOSLIGI //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-1 (94). – С. 111-115.

6. Рафиқова Д., Азимов У. ТАЪЛИМНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ВА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2 (81). – С. 167-169.

7. Rafikova D. et al. Preparing to innovative activity: Problem solving //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – Т. 2789. – №. 1.